

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

YER TUZISH VA YER MUNOSABATLARI KAFEDRASI

«YER TUZISHNI LOYIHALASH»

fanidan mustaqil ishlarini bajarish bo'yicha

METODIK KO'RSATMA



Toshkent – 2012

Ushbu metodik ko'rsatma institut ilmiy-metodik Kengashining «16»iyul 2012 yil bo'lib o'tgan № 11 - sonli kengashida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Metodik ko'rsatmada “Yer tuzishni loyihalash” fanidan reyting tizimi asosida talabalar mustaqil ishlarini baholash bo'yicha masalalar yoritilgan bo'lib, metodik ko'rsatma yerdan foydalanish va yer kadastr fakulteti 5410700 (5620700) Yer tuzish va yer kadastr, 5111000 Kasb ta'limi (5140900) (Yer tuzish va yer kadastr) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: A.J.G'ofirov, katta o'qituvchi

Taqrizchilar: M.A.Mamaraimov, Geoinformkadastr davlat unitar korxonasi direktori

A.Ashurov, katta o'qituvchi

Kirish

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan soha bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, fanga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Ma'lumki, axborot kommunikatsiya tarmoqlari va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars jarayonida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasa bilimni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonida shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi.

“Yer tuzishni loyihalash” fani bo'yicha talabalarni mustaqil ishini bajarishini tashkil etish, nazorat qilish va uni baholash tartibi Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti rektorining 2009 yil 19 oktabr 241 A/F sonli buyrug'i bilan amalga tadbiqu etilgan «Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida» gi buyrug'iga, 27 iyun 2011 yildagi 261 A/F sonli «Talabalar bilimini baholash reyting tizimi to'g'risida» gi buyrug'iga asosan amalga oshiriladi.

Fan bo'yicha talabalarni mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va uni baholash O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgust 286-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha Yo'riqnoma» va melioratsiya instituti Ilmiy-metodik Kengashi tomonidan tavsiya etilgan “Mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmaning strukturasi bo'yicha Yo'riqnoma”larda belgilab berilgan tartib va qoidalar asosida yuritilishi lozim.

“Yer tuzishni loyihalash” fanidan talabalar tomonidan mustaqil ishni bajarilishi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi Nizomi

talablari asosida nazorat qilinadi. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishni to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining extiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

“Yer tuzishni loyihalash” fanidan mustaqil ishni tashkil etishdan maqsad talabalarning mavzularni chuqurroq o'rganishi, bilimlari va malakasini mustahkamlashini ta'minlash. Mustaqil ish topshiriqlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- maqsad (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.)ning aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va metodlaridan talabalarning yetarli darajada xabardor bo'lishi;
- maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi (yo'llanma va ko'rsatma berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli holatlarni birgalikda hal qilish va h.k.);
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsultatsiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yoki referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol-javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyatini tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.).

Mustaqil ish muayyan “Yer tuzishni loyihalash” fanidan o’quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakaning ma’lum bir qismi bo’lib, o’qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Ushbu metodik ko’rsatmada talabalar mustaqil ishini bajarish yuzasidan kafedra tomonidan savol va topshiriqlar hamda ularni bajarish bo’yicha metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ish turlari bo’yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

“Yer tuzishni loyihalash”fani bo’yicha mustaqil ta’limga ishchi dastur asosida ajratilgan umumiy 220 soatni tashkil etadi.

1. MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

“Yer tuzishni loyihalash” fanidan mustaqil ishlarning shakli va mazmunini belgilashda quyidagi jihatlar e’tiborga olinishi kerak:

- Yer tuzishni loyihalash fanining o’ziga xos xususiyati va o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati, nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi;
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi ko’nikmalar hosil bo’lishiga muvofiq ravishda o’zgarib, oshib borishi lozim. Ya’ni, talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqillik darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarini bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o’rgatib borish kerak. Talabalarni mustaqil ishini tashkil etishda uning akademik o’zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik yoki o’quv qo’llanmalar, tarqatma materiallar bo’yicha fanlar boblari va mavzularini o’rganish, konspekt qilish;
- darslik yoki o’quv qo’llanmalar, tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar, jurnallar) bo’yicha fanlar bo’limlari va mavzulariga bog’liq materiallardan foydalanib referatlar tayyorlash;
- darslik yoki o’quv qo’llanmalar tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar, jurnallar va maqolalar to’plamlaridan foydalanib mustaqil ish mavzusi bo’yicha taqdimot tayyorlash;
- testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash;

Darslik yoki o’quv qo’llanmalar, tarqatma materiallar bo’yicha fanlar boblari va mavzularini o’rganish, konspekt qilish. Faning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o’quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o’zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar,

mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga ta'alluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Bakalavlarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabaning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar, jurnallar) bo'yicha fanlar bo'limlari va mavzulariga bog'liq materiallardan foydalanib referatlar tayyorlash. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan malumotlar, elektron kutubxona materiallari va x.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga xarakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada himoya qilinadi.

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar, jurnallar va maqolalar to'plamlaridan foydalanib mustaqil ish mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha taqdimot tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan malumotlar, elektron kutubxona materiallari va x.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga xarakat qiladi. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi. Yakunlangan taqdimot ishi kafedrada himoya qilinadi.

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalarini, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Maslahat paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida ximoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va maruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki maruza tayyorlash toshpirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai - nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda Talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayyorlangan maqola, tezis yoki maruza kafedrada himoya qilinadi.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

- tizimli yondashish;
- barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

- bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

2. “YER TUZISHNI LOYIHALASH” FANI BO’YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

5 davra

1. Yer tuzishni loyihalashning uslubiy masalalari.
2. Yer tuzishni loyihalash fanining predmeti, usullari, tamoyillari.
3. Yer tuzishni loyihalash texnologiyasi va usullari. Yer tuzishni loyihalash tizimi, loyihalash bosqichlari.
4. Yer tuzish loyihalari klassifikatsiyasi. Loyiha hujjatlari
5. Loyihalash texnologiyasi asoslari. Loyihalashni tashkil etish.
6. Yer islohati va yer tuzishni loyihalashning yangi vazifalari.
7. Xo'jaliklararo yer tuzishning iqtisodiy mohiyati, tushunchasi, vazifalari va mazmuni.
8. Yer fondi, uning tarkibi va foydalanilishi.
9. Xo'jaliklararo yer tuzishning vazifalari va mazmuni
10. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini ishlash uchun tayyorgarlik ishlarini bajarish.
11. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini ishlab chiqish.
12. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini muhokama qilish va tasdiqlash.
13. Xo'jaliklararo yer tuzish jarayoni va uni o'tkazishning asoslari.
14. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini joyga ko'chirish va yer egaliklari chegarasini rasmiylashtirish.
15. Xo'jaliklararo yer tuzish loyihasini rasmiylashtirish yerga egalik qilish huquqini beruvchi davlat aktini tayyorlash va topshirish.
16. Qishloq xo'jaligi yer egaliklari va yerdan foydalanishlarini tashkil etish va tartibga solish.
17. Qishloq xo'jaligi korxonalarining yer egaliklarini (yerdan foydalanishlarini) tashkil etishning tamoyillari
18. Yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tashkil etish.

19. Fermer xo'jaliklarida xo'jaliklararo yer tuzishning xususiyatlari.
20. Mavjud yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tartibga solish.

6 davra

21. Noqishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerdan foydalanishlarni tashkil etish, yerlarni va atrofdagi tabiiy muhitni muhofaza qilish.
22. Noqishloq xo'jalik korxona tashkilot va muassasalariga yer ajratish loyihasi uchun tayyorgarlik ishlarini bajarish.
23. Noqishloq xo'jalik korxonalariga yer ajratish. Yerni va atrof muhitni muhofaza qilish.
24. Noqishloq xo'jalik korxonalari yerdan foydalanishini tashkil etishga qaratilgan yer tuzishning vazifasi va mazmuni.
25. Yerdan foydalanishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish.
26. Ajratilgan yer uchastkasining unumdor tuproq qatlamini qirqib olish, saqlash, buzilgan yerlarni rekultivatsiyalashning texnik sharoitlarini tayyorlash.
27. Har xil turdagi yerdan foydalanishlarni tashkil etishning xususiyatlari.
28. Noqishloq xo'jalik korxonalariga, tashkilotlariga va muassasalariga yer ajratishda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining zararlari hajmini hisoblash va uni qoplash.
29. Noqishloq xo'jalik korxonalariga, tashkilotlariga va muassasalariga yer ajratishda yer egalarining ko'radigan zararini hisoblash va ularni qoplash usullarini belgilash.
30. Loyihani kelishish va tasdiqlash.
31. Loyihani joyga ko'chirish, rasmiylashtirish va amalga oshirish.
32. Aholi yashash joylarining chegaralarini belgilash va o'zgartirish, yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanish.
33. Qishloqlarning chegara chiziqlarini belgilash va o'zgartirish.
34. Ma'muriy hududiy bo'linmalarining chegaralarini belgilash. yerdan foydalanishdagi cheklashlar va majburiyatlar.
35. Servitutlar va ularni xo'jaliklararo yer tuzishda hisobga olish.
36. Xo'jaliklararo yer tuzishning maxsus masalalari.

- 37. Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan yer fondlarini shakllantirish
- 38. Qochoqlarni, majburiy ko'chirilganlarni va zaxiraga chiqarilgan harbiy xizmatchilarni joylashtirishni yer uchastkalari bilan ta'minlash.
- 39. Qayta tashkil qilinadigan qishloq xo'jalik korxonalari hududida yer tuzish ishlari.

7 davra

- 40. Xo'jalikda ichki yer tuzishning vazifalari va mazmuni.
- 41. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining mazmuni.
- 43. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini bajarish tartibi va usullari.
- 42. Tayyorgarlik va izlanish ishlari.
- 43. Ishlab chiqarish bo'limlarini va xo'jalik markazlarini joylashtirish.
- 44. Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirishning vazifasi, mazmuni va umummetodik masalalari.
- 45. Ishlab chiqarish bo'linmalarining soni va o'lchamini belgilash. Qishloq aholi punkt (xo'jalik markaz)larini joylashtirish.
- 46. Aholi punkt (xo'jalik markaz)larining istiqbolli rivojlanishi va joylashuvini aniqlash.
- 47. Ishlab chiqarish bo'linmalari va aholi punktlarini joylashtirishning loyixa yechimlarini iqtisodiy asoslash.
- 48. Tomorqa yer uchastkalarini tartibga solish va aholi punktlari yerini chegaralash.
- 49. Hududni injenerlik jihozlashga taalluqli ob'ektlarni joylashtirishning vazifasi va mazmuni.
- 50. Xo'jalikda ichki asosiy (magistral) yo'llarni, injenerlik inshootlarini va ob'ektlarini joylashtirish.
- 51. Xo'jalikda ichki asosiy (magistral) yo'llarni joylashtirish loyihasini ishlash tartibi.
- 52. Yer turlarini tashkil etishning tushunchasi, vazifasi va mazmuni.
- 53. Yer turlarini tashkil etish tartibi.
- 54. Yer turlarini tashkil etish loyihasini iqtisodiy asoslash.

55. Almashlab ekish tizimini loyihalashning vazifasi, mazmuni va umummetodik masalalari.

56. Xashak almashlab ekishini tashkil etish.

57. Maxsus almashlab ekishini tashkil etish.

58. Dalachilik almashlab ekishini tashkil etish.

59. Almashlab ekish hududini tashkil etishning vazifasi va mazmuni.

60. Sug'orish uchastkalari va almashlab ekish dalalarini loyihalash.

61. Brigada uchastkalarini joylashtirish.

62. Chiziqli element (sug'orish shahobchalari, ihota daraxtlari tizimi va dala yo'l) larini joylashtirish.

63. Mevali daraxtlar hududini tashkil etishning vazifalari

64. Bog'zorlar hududini tashkil etish

65. Uzumzorlar hududini tashkil etish

66. Rezavor bog'lar hududini tashkil etish

67. Ko'chatzorlar hududini tashkil etish

8 davra

68. Yem-xashak olinadigan yer turlarining hududlarini tashkil etish.

69. O'zbekiston hududidagi yaylov va pichanzorlar to'g'risida ma'lumot.

70. Tabiiy yaylovlar hududini tashkil etish.

71. Madaniy yaylovlar hududini tashkil etish.

72. Pichanzorlar hududini tashkil etish.

73. Fermer xo'jaliklarida ichki yer tuzishning xususiyatlari.

74. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.

75. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini muhokama qilish va tasdiqlash. 76.

Loyihani joyga ko'chirish

77. Loyihalarni rasmiylashtirish, hujjatlarni berish va amalga oshirish.

78. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini amalga oshirish yuzasidan mualliflik nazoratini o'tkazish.

79. Ishchi loyihalarni tuzishning vazifalari, mazmuni va usullari.

80. Yer turlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha ishchi loyihalar.

Qo'shimcha mavzular

81. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi».

82. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida» gi qonuni.

83. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaliklari to'g'risida» gi qonuni.

84. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi qonuni.

85. O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risidagi» qonuni.

86. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni «Qishloq xo'ja-ligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» 2003 yil 24 mart.

87. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida» gi qonuni.

88. Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini fuqorolarga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi.

89. O'zbekiston Respublikasida Yer tuzishning Asosiy Nizomi.

90. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 25.05.2011 y.N 146. Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun yer uchastkalari berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.

91. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 25.05.2011 y.N 147. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga tanlov asosida yer uchastkalari berishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.

92. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 5-oktabrdagi "Fermer xo'jaliklari yer uchastkalari maydonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-3077-sonli farmoyishi.

93. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 18-oktabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-3512-sonli farmoyishi.

3. MUSTAQIL ISHNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR

"Yer tuzishni loyihalash" fanining xususiyatlaridan kelib chiqib talabalar mustaqil ish shakllarini erkin tanlashlari mumkin. Topshiriqlar puxta, o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlashi, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishda xizmat qiladi.

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish, konspekt qilish.

Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim.

Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda "Yer tuzish iqtisodi" faniga oid o'quv adabiyotlaridan foydalanib ushbu mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarining mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar.

Mavzuni bayon etish uchun dars jarayonidagi reja asosida va unga qo'shimcha qilgan holda konspektlashtirishlari lozim. Mavzuni bayon etuvchi konspekt talabaning daftarida hajmi 5 betdan kam bo'lmasligi lozim. Shuningdek, mavzuga doir, tayanch iboralar va ularga izoh beruvchi Glossariylardan tuzilishi lozim. Tayanch iboralar soni mavzuning ko'lamidan kelib chiqqan holda 15 tadan kam bo'lmasligi lozim. Topshiriq oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va internet saytlari (5-bo'limdagi kabi) tartibi bo'yicha aks ettirishi lozim.

Zarur hollarda (o'zlashtirish qiyin bo'lsa, savollar paydo bo'lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasa va h.k.) o'qituvchidan maslahatlar oladilar.

YER FONDI, UNING TARKIBI VA FOYDALANILISHI

Reja

- 1. O'zbekiston respublikasi yer fondi*
- 2. Yer fondi toifalari*
- 3. Yer fondidan foydalanish*

Tayanch iboralar

Yer fondi, yer fondi toifalari, aholi yashash joylari, rekreatsiya, o'rmon fondi, suv fondi, zahira yerlar, mudofaa, transport, aloqa, tarixiy –madaniy, qishloq xo'jaligi,

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar, jurnallar) bo'yicha fanlar bo'limlari va mavzulariga bog'liq materiallardan foydalanib referatlar tayyorlash.

Mustaqil ish mavzusi yuzasidan materiallarni to'plash maqsadida adabiy manbalar o'rganilayotganda, ularni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar, vujudga kelgan fikr-mulohazalar hamda xulosalar homaki tarzda yozib borilishi lozim, buning natijasida ularni tuzilgan rejaga asosan tartibga solish va umumlashtirish ishlarini osonlashtirilishiga erishiladi.

Ma'lumotlarni o'rganish va ularni to'plash bajarilayotgan mustaqil ish yuzasidan o'rganilayotgan masalalarning hozirgi holatini aks ettirish, ularni takomillashtirish yo'llarini hamda mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Ba'zi hollarda zaruriyatdan kelib chiqqan holda, kerakli ma'lumotlarni to'plash maqsadida maxsus kuzatuv ishlari ham amalga oshiriladi. Ma'lumotlarini o'rganish natijasida olingan raqamli ma'lumotlar jadval ko'rinishda tartibga solinib, umumlashtiriladi, hamda tahlil qilinadi va xulosa, takliflarni bayon etishda keng foydalaniladi.

Mustaqil ishning asosiy qismida o'rganilayotgan mavzuning nazariy asoslari, uning davlat tomonidan tartibga solinishi, hozirgi holati hamda uni yanada takomillashtirish kabi masalalar yoritiladi. Xulosa mustaqil ishning mavzusidan kelib chiqqan bo'lishi lozim.

Mustaqil ishni belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilishi ma'lum bir ma'noda to'plangan materiallarning aniq va xaqqoniyligiga ham bog'liq bo'ladi. Mustaqil ishni yozishda quyidagilarga e'tiborni qaratish va ularga rioya etish kerak bo'ladi:

- ma'lumotlar aniq, xaqqoniy bo'lishi va tartibli bayon etilishi;
- ma'lumotlar bayoni mantiqiy izchil, jumla tuzilishlari tushunarli, qisqa va aniq bo'lishi;
- xulosalar isbotlangan va takliflar asoslangan holda aks ettirilishi;
- ma'lumotlarni bayon etishda mavhumlik va kaytarilishlarga yo'l qo'ymaslik;
- adabiy manbalardan, rasmiy hujjatlardan ma'lumotlarni ko'chirib yozmaslik;
- umumiy nutqda qo'llanilmaydigan so'zlar, atamalar va iboralarni qo'llamaslik.

To'plangan raqamli ma'lumotlarni mustaqil ishda joylashtirishda jadvallardan foydalanish mumkin va ular mazmunidan kelib chiqqan holda, nomlanadi va jadvalning tepasiga "Jadval" so'zi unga biriktilgan tartib raqami bilan botiq xarflar orqali sahifaning o'ng tomoniga yozilishi lozim. Masalan, "4-jadval". Jadvalning sarlavxasini ajratib yozish shart emas. Referatning matnida jadval haqida ma'lumot keltirilgandan keyinroq uning o'zini joylashtirish kerak. Agar jadval aks ettirilayotganda uning keyingi betga ham ko'chirilishiga to'g'ri kelib qolsa, u holda jadvalning ustunlari raqamlanadi, hamda bu raqamlanish keyingi betda ham ko'rsatilib, jadvalning davomi aks ettiriladi.

Aks ettirilgan formulalar, chizma yozuvlar bilan aniq yoziladi, hamda ularning ostida qo'llanilgan belgilar hamda son darajalari tushuntirish ma'nosiga ko'ra, ularning formuladagi ketma-ketligiga amal qilingan tarzda ko'rsatiladi. Formulada qo'llanilgan har bir belgi va son darajalarining ma'nosi yangi xat boshidan yozilishi kerak.

Referat talaba tomonidan qo'lyozma ravishda tayyorlanishi lozim. Referat hajmi 10 betdan kam bo'lmasligi va foydalanilgan manba ssilka tarzida matnda o'z aksini topishi lozim. Referat shaklidagi mustaqil ish A4 formatdagi varaqda matn chegaralari 30 mm, 15 mm, 20 mm va 20 mm bo'lishi lozim. Referat shaklidagi mustaqil ishning titul

varag'i 1-ilova bo'yicha rasmiylashtirilishi lozim. Bunda talaba "Yer tuzishni loyihalash" faniga oid asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqolalar, internetdan olingan ma'lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig'adi, tizimga soladi va mavzu bo'yicha imkon darajasida to'liq, keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Talabani baholashda mavzuni yoritishdagi faolligi va uni bayon qilishi hamda qo'shimcha savollarga javob bera olishiga e'tibor beriladi. Mustaqil ish oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va internet saytlari (5-bo'limdagi kabi) tartibi bo'yicha aks

ettirishi lozim. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Yakunlangan referat kafedrada himoya qilinadi.

Namuna

***MAVZU: ISHLAB CHIQUARISH BO'LINMALARI VA AHOLI PUNKT
(XO'JALIK MARKAZ)LARINI JOYLASHTIRISH***

Reja:

Kirish

- 1. Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirishning vazifasi, mazmuni va umummetodik masalalari.*
- 2. Ishlab chiqarish bo'linmalarining soni va o'lchamini belgilash.*

Xulosa


Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati

Darslik yoki o'quv qo'llanmalar tarqatma materiallar, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar, jurnallar va maqolalar to'plamlaridan foydalanib mustaqil ish mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.

"Yer tuzishni loyihalash" fanidan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar va h.k.)ning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. Ko'rgazmali vositalar plakatlardan tashqari slaydlar shaklida Microcoft Power Point dasturida ham bajarilishi mumkin.

Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi.

Namuna



мавзу: Хўжаликда ички ер тузишда тайёргарлик ишлари

Бажарди: 4 босқич 6 гуруҳ талабаси Шухрат Жўраев

Mavzu bo'yicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun-qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali vaziyatlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladi. Maslahat paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talablarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin). Muayyan mavzu bo'yicha testlar soni 10 tadan kam bo'lmasligi va undagi javoblar soni 4 tadan iborat bo'lishi hamda to'g'ri javob * bilan belgilanishi lozim.

Namuna

1. Yer fondi deganda nima tushuniladi?

a. qishloq xo'jali korxonalari foydalanayotgan maydon

b. sanoat va qishloq xo'jalik korxonalariga berilgan yerlar

c*. xo'jalik yuritish ob'ekti hisoblangan, aniq hududning chegaralaridagi barcha yerlar yig'indisi

d. zahira yerlar, suv va o'rmon fondi

Testlar uzviyligi ta'minlanishi va qiyinlik darajasi bo'yicha (qiyin, o'rta va oson) tuzilishi lozim. Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada himoya qilinadi.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash. Talabaga biron-bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Tayyorlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi.

4. ISHNING REJASINI TUZISH VA BAJARILADIGAN ISHLARNI NAZORAT QILISH

4.1. Kafedraning asosiy vazifalari

Kafedra tomonidan mustaqil ishni amalga oshirishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak.

- mustaqil ish mavzularini tasdiqlash va qayta ko'rib chiqish;
- Talaba mavzuni o'rganishda unga kerakli ko'rsatmalar va amaliy yordam berish;
- Talabaga ilmiy rahbarlarni tayinlash va biriktirish;
- Talabaning ishini tayyorlashi uchun rejani tasdiqlab berish va uning vazifasini bajarishini nazorat qilish;
- Talaba tomonidan bajarilgan ishning sifatiga taqriz berishdan iborat bo'ladi.

4.2. Ilmiy rahbarning vazifalari

Talabaning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi

kerak.

- talaba ishni bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berishi;
- ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berishi va adabiyotlarni tavsiya etishi;
- talabaning rejasini tasdiqlashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishni tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;
- talaba ishni bajarishida tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi.

4.3. Talabaning vazifalari

Talaba mustaqil ishni bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi lozim:

- ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;
- ilmiy rahbarning tuzib bergan rejasi asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi;
- o'rnatilgan tartib bo'yicha mustaqil ishning hisobotini o'z vaqtida kafedraga taqdim etishi kerak.

Talaba ishning rejasini tuzishda ilmiy rahbar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirishi kerak.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik xaritasi asosida olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha fakultetning an'anaviy guruh reyting oynasida yoki maxsus elektron tarmog'ida yoritib boriladi. Talaba mustaqil ishining nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi va fakultet Ilmiy kengashida tasdislanadi.

“Yer tuzishni loyihalash” fani bo'yicha mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi. Talaba mustaqil ishi natijalari amaldagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan institut rektorining 27 iyun 2011 yildagi 261 A/F sonli «Talabalar bilimini baholash reyting tizimi to'g'risida» gi buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. “Yer tuzishni loyihalash” fani bo'yicha mustaqil ish mavzulari va baholash me'zoni kafedra majlisi qaroriga binoan amalga oshiriladi. “Yer tuzishni loyihalash”

fani yuzasidan talabalarining mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlari va fakultet Ilmiy Kengashlarida muhokama etib boriladi.

Talabaning mustaqil ishi materiallari kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

“Yer tuzishni loyihalash” fanidan talabaning mustaqil ishini bajarishga tayyorgarligini tekshirib ko'rish uchun quyidagi savollar berilishi maqsadga muvofiqdir:

5-davra

1. Noqishloq xo'jalik ob'ektlarining yerdan foydalanishlarini tashkil etish loyihalarini ishlash nima uchun zarur?
2. Atrof muhitga va hududni tashkil etishga ta'siri bo'yicha noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini qanday bo'lish mumkin?
3. Noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etishda qishloq xo'jaligining ustivorligi tamoyili nimalardan iborat bo'ladi?
4. Noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etishda qanday talablar bajarilishi kerak?
5. Noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etish jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
6. Noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etish loyihasining qanday tarkibiy qismlari bor?
7. Beriladigan yer uchastkasining maydoni qanday usullarda aniqlanadi?
8. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi zararlarini qoplash hajmi qanday miqdorda va qanday qilib aniqlanadi?
9. Yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning zararlari nimalardan iborat bo'ladi?
10. Tuproqlarning unumdor qatlamini qirqib olish va undan foydalanish, buzilgan yerlarni rekultivatsiyalashning texnik sharoitlari maqsadi va mazmuni nimalardan iborat?
11. Noqishloq xo'jalik ob'ektlarini joylashtirish loyihasi yechimlari qanday ko'rsatkichlar bo'yicha va qanday solishtiriladi?

12. Buzilgan yerlarni rekultivatsiyalash nima?
13. Buzilgan yerlarni rekultivatsiyalashning yo'nalishlari, bosqichlari, ob'ektlari qanday?
14. Buzilgan yerlarni rekultivatsiyalashda tuproq bilan qoplash nima?
15. Har xil turdagi noqishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil etishning xususiyatlari?
16. Yirik suv omborlari mintaqasidagi xo'jaliklararo yer tuzishning xususiyatlari?
17. Qanday ma'noda yer cheklangan resurs hisoblanadi?
18. Yerning qanday xususiyatlari yer tuzishda muhofaza qilinishi kerak?
19. Qanday hududlarda yerni va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni loyihalash kerak?
20. Yerlarni va atrof muhitni muhofaza qilishda yer tuzishning vazifalari nimalardan iborat?
21. Noqishloq xo'jalik ob'ektlarini tashkil etishdagi tabiatni muhofaza qilishning xususiyatlari?

6 - davra

22. Qishloqning chegara chizig'i nima va bu chiziq ichidagi yerlardan foydalanishning qanday xususiyatlari bor?
23. Shaharning chegara chizig'ini belgilash va o'zgartirish loyihasining mazmuni nimalardan iborat?
24. Shahar chegarasi (chizig'i) loyihasi o'z ichiga nimalarni oladi?
25. Shahar chegarasi ichida qanday loyihaviy hujjatlar ishlanadi?
26. Shahar yer xo'jaligi loyihasi qanday loyiha hisoblanadi va unda qanday masalalar o'z yechimini topadi?
27. Qishloqlarning chegara chizig'ini belgilash va o'zgartirish qachon o'tkaziladi?
28. Qishloq yerlarini inventarizatsiyalashning asosiy vazifalari nimalardan iborat va ular necha bosqichda bajariladi?
29. Qishloq yerlarini inventarizatsiyalashda tayyorgarlik ishlari nimalarni o'z ichiga oladi? (materiallarni yig'ish, qishloq chegara chizig'ini belgilash)
30. Ishlab chiqarish bosqichini ishlashda qanday tamoyillarga rioya qilinadi?

31. Qishloqning chegara chizig'ini belgilash loyihasi tarkibiy qismlari nimalarni o'z ichiga oladi?
32. Joylarda ma'muriy hududiy bo'linmalar chegaralarini belgilashdagi yer tuzish ishlarining mazmuni.
33. Maxsus huquqiy tartibga ega yerlar hududlari chegaralarini belgilash qanday amalga oshiriladi?
34. Yer egaliklari va yerdan foydalanishlar chegaralarini belgilash va tiklash qanday amalga oshiriladi?
35. Servitut nima va ularga nimalarni kiritish mumkin? (cheklangan foydalanish..... elektr uzatish....)
36. Maxsus tartibda foydalaniladigan yerlarga nimalar kiradi?
37. Tuman yerlaridan foydalanishdagi cheklashlar va majburiyatlar navbatchi xaritasida nimalar aks ettiriladi?
38. Cheklashlar va majburiyatlarning navbatchi xaritalari qanday tuziladi?
39. Qishloq xo'jalik maqsadlaridagi yangi yer egaliklari va yerdan foydalanishlar qanday yerlarda tashkil etilishi mumkin?
40. Qayta taqsimlash chizmasining mazmuni nimalardan iborat?
41. Fermer xo'jaliklarini va ular guruhlarini maxsus fondi, qayta taqsimlash fondi yerlarida joylashtirishda qanday tamoyillarga rioya qilish kerak?
42. Fermer xo'jaliklari (yerdan foydalanishlar) chegaralarini belgilashda qanday talablar qo'yiladi?
43. Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan yer fondlari bo'yicha foydalanilayotgan yerlarga qanday yerlar kiradi?
44. Qanday yerlar samarasiz foydalanilayotgan yerlar va foydalanishdan chiqib qolgan yoki kam qimmatli yerlarga o'tkazilgan yer turlariga o'tkazilgan yerlarga kiritiladi?
45. Yerlardan foydalanishning nisbiy darajasi deganda nimani tushunasiz?
46. Qochoqlarni, majburiy ko'chirilganlarni yer uchastkalari bilan ta'minlash chizmasining asosiy vazifasi nima?
47. Qochoqlarni, majburiy ko'chirilganlarni yer uchastkalari bilan ta'minlash

chizmasini ishlash uchun topshiriqda nimalar belgilanadi?

48. Qochoqlarni, majburiy ko'chirilganlarni yer uchastkalari bilan ta'minlash chizmasini ishlashda tayyorgarlik ishlari nimalarni o'z ichiga oladi?

49. Ko'chiriladiganlarni yer uchastkasi bilan ta'minlash chizmasining yozma qismida nimalar yoritiladi?

50. Ko'chiriladiganlarni yer uchastkasi bilan ta'minlash chizmasi plan xarita materiallari nimalarni o'z ichiga oladi?

51. Ko'chiriladiganlarni yer uchastkasi bilan ta'minlash chizmasi qanday tasdiqlanadi va rasmiylashtiriladi?

52. Nimalar qishloq xo'jalik korxonalarini qayta tashkil etish loyihasining asosiy vazifalari hisoblanadi?

53. Qayta tashkil etilayotgan korxonaning XAYET loyihasi o'z ichiga qanday tarkibiy qismlarni oladi?

54. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yangi yerdan foydalanishlarni tashkil etishda loyihaga qanday ma'lumotlar kiritiladi?

55. Yangi yerdan foydalanishlarni tashkil etishga qanday talablar qo'yiladi?

7- davra

56. Xo'jalikda ichki yer tuzishning tushunchasi?

57. Xo'jalikda ichki yer tuzishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?

58. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyixasi qanday tarkibiy kislmlarga bulinadi?

59. Xo'jalikda ichki yer tuzish jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

60. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyixasini ishlab chiqish uchun kerakli boshlang'ich materiallar tarkibiga nimalar kiradi?

61. Xo'jalikda ichki yer tuzishda tayyorgarlik ishlarining mazmuni.

62. Tayyorgarlik ishlarining turlari.

63. Yer tuzish dala izlanishlari natijalari qanday hujjatlarda qayd qilinadi.

64. Xo'jalikda ichki yer tuzishda loyihalash uchun topshiriq tayyorlashda qanday materiallardan foydalaniladi?

65. Xo'jalik tuzilishining birligi sifatida ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishning ahamiyati qanday?

66. Xo'jalikda ichki yer tuzishda aholi punktlarini joylashtirishda qanday masalalar yechiladi?
67. Qishloq xo'jalik korxonalarining tashkiliy-xo'jalik tuzilishi turlari qanday?
68. Xo'jalikning kelajakda foydalaniladigan yerlar maydoni qanday aniqlanadi?
69. Xo'jalik aholisining umumiy soni qanday aniqlanadi?
70. Yerdan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
71. Odamlar soni bo'yicha qishloq aholi punktlari qanday turkumlanadi?
72. Xo'jalikning tomorqa yer maydoni qanday ifoda orqali aniqlanadi?
73. Istiqbolli qishloq aholi punktlarini joylashtirishda qanday talablar hisobga olinadi?
74. Qishloq aholi punktlarining umumiy maydoni qanday hisoblanadi?
75. Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirish loyihasini iqtisodiy asoslashda ko'proq foydalaniladigan kapital (K) va yillik (S) xarajatlardan iborat keltirilgan xarajatlar (Π_3) qanday formula yordamida hisoblanadi?
76. Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirish loyihasini iqtisodiy asoslashda aniqlanadigan kapital xarajatlar yig'indisi qanday aniqlanadi?
77. Yillik xarajatlar nimalardan tashkil topadi?
78. Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirish loyihasini iqtisodiy asoslashda hisoblanadigan transport xarajatlari yig'indisi.
79. Xo'jalikda asosiy yo'l tarmoqlarini joylashtirishda qanday masalalar yechiladi?
80. Xo'jalikda asosiy yo'llarni guruhlariga bo'lish qanday amalga oshiriladi?
81. Asosiy qishloq xo'jalik yo'llariga qanday yo'llar kiradi?
82. Yo'ldan bir kecha kunduzda o'tadigan avtomashinalar soni qanday aniqlanadi?
83. O'rtacha yuk tashish masofasi qanday tanlanadi?
84. Xo'jalik ichki (magistral) yo'llarni joylashtirish loyihasini iqtisodiy asoslashda qaysi ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
85. Yer turlari qanday tushunchaga ega?
86. Qaysi yer turlari qishloq xo'jalik yer turlari guruhiga kiradi?
87. Qaysi yerlar haydaladigan yer turlariga kiradi?
88. Haydaladigan yer turlari xillari va sifati bo'yicha qanday tavsiflanadi?

89. Qaysi yerlar partov yerlar deyiladi?
90. Ko'p yillik daraxtlarga nimalar kiradi?
91. Yer turlarini tashkil qilishni qanday tushunasiz?
92. Yer turlarini tashkil qilishni bosh vazifasi nima?
93. Yer turlarini transformatsiyalashni qanday tushunasiz?
94. Qaysi yo'nalishlar bo'yicha yer turlari transformatsiyalanadi?
95. Yer turlarini tashkil etish samarasi qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
96. Yer turlarini tashkil etish natijasidan kutilgan yalpi mahsulot hajmi (W) qanday aniqlanadi?
97. Yer turlarini o'zlashtirish va yaxshilash natijasida olinadigan sof daromad (d_r) qiymati qanday aniqlanadi?
98. Yer turlarini tashkil etish bilan bog'liq umumiy kapital xarajatlar ($K_{mp+y.l}$) qanday hisoblanadi?
99. Yer turlarini tashkil etish bilan bog'liq umumiy kapital xarajatlarning iqtisodiy samara (E) qanday aniqlanadi?
100. Yer turlarini transformatsiya qilingan yili qo'shimcha mahsulot olinganda kapital xarajatlarni qoplash muddati (T_{OK}) qanday aniqlanadi?
101. Yer turlarini meliorativ tayyorlash vaqti hisobga olingan taqdirda kapital xarajatlarni qoplash muddati (T_{OK}) qanday aniqlanadi?
102. Yer turlarini tashkil etish bilan bog'liq rentabellik normasi qanday hisoblanadi?
103. Almashlab ekish massivini joylashtirishda qanday talablar hisobga olinadi?
104. Almashlab ekishlarning qaysilari maxsus hisoblanadi? Ular qaysi belgilar bilan farqlanadi?
105. Almashlab ekish tizimini tashkil etish loyihasining yechimlari qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali hisoblanadi?
106. Almashlab ekish tizimini tashkil etish qanday tushunchaga ega?
107. Sug'oriladigan almashlab ekish hududini tashkil etishda loyihalananadigan elementlar guruhiga nimalar kiradi?
108. Almashlab ekish dalasi qanday tushunchaga ega, uni loyihalashda hisobga

olinadigan talablar qaysilar?

109. Almashlab ekish massivida dalalar qachon o'zaro teng bo'lishi kerak va nima uchun?

110. Dala shiyponlarini loyihalashda qanday talablar hisobga olinadi?

111. Xo'jaliklarda dala yo'llari qanday vazifani bajaradi, ularni joylashtirishning sababi nimada?

112. Dalalarni kuchli shamoldan himoyalaydigan o'rmon daraxtlari chizimi necha xil?

113. Ko'p yillik daraxtlar hududini tashkil etishning vazifasi nimalardan iborat?

114. Bog'zorlar hududini tashkil etishda loyihalanadigan elementlar guruhiga nimalar kiradi?

115. Bog'zorlarda kvartallarning optimal maydoni necha gektar va shakllari qanday bo'lgani ma'qul?

116. Bog'zorlar kvartallarida daraxtlarning turlari va navlari necha xil bo'ladi va nima uchun?

117. Bog'lar kvartallarida daraxtlarni joylashtirish necha xil sxemada bo'ladi?

118. Intensiv tipdagi daraxtlar hududini tashkil etishda qanday xususiyatlar mavjud?

119. Bog'zorlarda brigada uchastkalarining maydoni necha gektar bo'lgani ma'qul, ularda kvartallarning soni qancha va navlarning miqdori qanchadan bo'lishi kerak?

120. Bog'zorlarda brigada shiyponlari qanday vazifani bajaradi, bo'limlarda ish jarayoni qanday tashkil etiladi?

121. Bog'zorlarda brigada shiyponlarini joylashtirish uchun qanday talablar hisobga olinadi?

122. Bog'zorlarda asosiy va yordamchi ihota daraxtlari o'tqazuvidan tashqari yana qanaqa va necha qatorli daraxtlar o'tqazuvi joylashtiriladi?

123. Nima sababdan bog'zorlarda joylashtiriladigan o'rmon daraxtlari o'tqazuvining ikki tomonidan 10-20 metrli kenglik qondiriladi, ulardan qanday foydalaniladi?

124. Bog'lar hududini tashkil etishda loyihalanadigan kvartallar aro yo'llar qanday talablarga javob berishi kerak?

125. Uzumzorlar kvartalida joylashadigan ishchi kataklar qanday tushunchaga ega,

ularni joylashtirishda qanday talablar hisobga olinadi?

126. Uzumzorlarda ishchi kataklar aro yo'llarni funksional vazifasi nima?

127. Bog'zorlar ko'chatxonasining tashkiliy tuzilishi qanday?

128. Bog'zorlar ko'chatxonasi uchun kerakli maydon qanday hisoblanadi?

8-davra

129. Respublika bo'yicha yaylov va pichanzorlar bilan band yerlar maydoni qancha?

130. Yaylov sifati bo'yicha qanday tavsiflanadi?

131. Tabiiy yaylovlar hududini tashkil etish loyihasini ishlashda qaysi miqyosli plan kartografik materiallardan foydalaniladi?

132. Geobotanik qidiruv materiallariga nimalar kiradi, ulardan nimalarni aniqlashda foydalaniladi?

133. Hidrogeologiya qidiruv materiallarida nimalar tavsifi berilgan bo'lishi kerak?

134. Tabiiy yaylovlar hududini tashkil etishda loyihalanadigan elementlar guruhiga nimalar kiradi?

135. Xo'jaliklarga biriktiriladigan yaylov yerlar maydoni qanday aniqlanadi bunda hisobga olinadigan omillarga nimalar kiradi?

136. Ishlab chiqarish bo'linmalari sifatida fermalarning yaylov yer maydonlari qanday aniqlanadi, bunda nimani hisobga olish kerak?

137. Otar-qo'y podasi, gurta qoramol podasi, tubun yilqilar podasi. Bu podalarni tashkil etish prinsipi qanday?

138. Yil bo'yicha foydalanadigan yaylovlarda otar (quduq oldi) uchastkalarni loyihalashda qanday talablar hisobga olinadi?

139. Suv manbalarini joylashtirishda hisobga olinadigan talablar qaysilar?

140. Yaylovlarning sifatini yaxshilash uchun qo'llanadigan fitomeliorativ tadbirlarning qanday tushunchaga ega?

141. Artezian skvajinasi suvi bilan sug'oriladigan va oziqalanadigan yaylov uchastkalari qayerda joylashadi va qanday foydalaniladi?

142. Yil bo'yi foydalanadigan yaylovlar uchun kiritiladigan almashlab boqish sxemasi qanday? Yillar va dalalar bo'yicha almashlab poda boqish tartibi:

143. Yil bo'yi foydalanadigan yaylovlar uchun kiritiladigan fasllarning muddatlari

qancha?

144. Otar uchastkasining maydoni qanday aniqlanadi?

145. Poda yo'llari nima uchun kerak, ular qayerda va qanday joylashtiriladi?

146. Dengiz sathiga nisbatan joylashuvi bo'yicha tabiiy yaylovlar qanday turkumlanadi?

147. Tekislik yaylov mintaqasi maydoni qancha, qaysi faslda va chorvaning qaysi turi uchun foydalaniladi?

148. Tog'oldi (adir) mintaqasi maydoni qancha, u qaysi fasllarda va chorvaning qaysi turi uchun foydalaniladi?

149. Yaylovlar hududini tashkil etish loyihasini ishlashda jalb etiladigan tarmoqli mutaxassislar qaysilar?

150. Madaniy yaylovlarni tashkil etishning qanday afzalligi bor, ularning xillari nechta?

151. Pichanzorlar qanday ahamiyatga ega, ular qanday yerlarga joylashtiriladi?

152. Pichanzorlar hududini tashkil etishda loyihalangan elementlar qaysilar?

153. Pichanzorlar uchastkasida qanday almashlab pichan o'rish sxemasi qo'llaniladi?

154. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini umumiy baholash mezonlari (kriteriyasi) bo'lib nima xizmat qiladi?

155. Xo'jalikda ichki yer tuzish iqtisodiy samarasi qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi?

156. Xo'jalikda ichki yer tuzishning ijtimoiy samarasining umumiy ko'rsatkichi nimalardan iborat?

157. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini muhokama qilish va tasdiqlashda qanday tartib mavjud?

158. Loyiha hujjatlariga nimalar kiradi?

159. Yuridik hujjatlar tarkibiga nimalar kiradi?

160. Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining yozma qismi tarkibiga nimalar kiradi?

Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahatlar tashkil etish tartibi:

1. "Yer tuzishni loyihalash" fanidan talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahat

darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishga mo'ljallangan mustaqil ishlarni bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.

2. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahat darsi fanning kalendar-tematik rejasiga muvofiq o'tkaziladi.

3. Maslahat darsi tegishli fan o'qituvchisi tomonidan o'tkaziladi.

4. Fan o'qituvchisi maslahat darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- Talabalar mustaqil ishi topshiriqlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanma beradi;
- topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
- tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi;
- Talabalar mustaqil ishi yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob-kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.

5. "Yer tuzishni loyihalash" fanidan talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahat darslari o'qituvchi jurnalida qayd etib boriladi.

5. FOYDALANILADIGAN MANBALAR

«Yer tuzishni loyihalash» faniga taalluqli bo'lgan barcha turdagi adabiyotlarni va manbalarni ko'rib chiqish lozim. Bular: maxsus; ilmiy; ilmiy-ommobop; ma'lumotnomalar, shu jumladan statistik; umumiy, milliy hisobotlar, yillik yer fondlari.

Adabiyotlarni o'rganishdan oldin yana bir bor mavzuni to'g'ri tanlanganligiga ishonch hosil qilish lozim.

Talaba adabiyotlarni mustaqil va to'g'ri tanlashi kerak. Manbalarni to'plashda talaba uning chop etilgan yiliga ham alohida e'tibor berishi lozim. Eski manbalardan olingan ma'lumotlar bugungi kundagi dolzarb hisoblangan muammolarni yechishda unchalik ahamiyatli bo'lmay qoladi.

Talaba bir nechta manbalarni qiyosiy tahlil qilgan holda o'ziga eng ma'qul deb topgan ma'lumotlarni olgandagina olib borgan tadqiqoti samara beradi.

MUSTAQIL ISH UCHUN TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent: "O'zbekiston" 2003 (yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. T.: 2009 y.3 –son.
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi. T.: O'qituvchi, 1998
4. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami. T.: O'qituvchi, 1998
5. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida. T.: Adolat nashriyoti, 2008
6. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi. T.: O'qituvchi, 1998
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir» T.: 2010 yil 27 yanvar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi maruzasi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi".
«Xalq so'zi» gazetasi 2010 yil 13 noyabr
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda "O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga

oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2005 yil 14 iyun

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-3077 "Fermer xo'jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2008 5 oktabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 apreldagi № 325-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 18-oktabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-3512-sonli farmoyishi

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida mikrokreditlashni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 309-sonli qarori, 2002 yil 30 avgust.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 2008—2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 37-38-son, 382-modda.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2006 yil 10 fevraldagi «2005 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2000 yil 12 avgustdagi «Bozorlar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida»gi 315-sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 31 oktabrdagi «Ijtimoiy ahamiyatga molik iste'mol tovarlari savdosini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 maydagi «Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to'g'risida»gi 154–sonli Qarori.

IV. Prezident I.A. Karimov asarlari

20. Karimov I.A. O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy tamoyillari.- T.: O'zbekiston, 1995.
21. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1996.
22. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari.-T.:O'zbekiston, 1997.
23. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi gazetasi 2002 yil, 30 avgust soni.

V. O'zbekiston Respublikasi Vazirliklari tomonidan ishlab chiqilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar

24. “Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi Vazirligining 1523-sonli buyrug'i. 2005 yil 29 noyabr.
25. “O'zdaverloyiha” ilmiy loyihalash instituti tomonidan “O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning sifatini, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning muvaqqat uslubi”. 1998 yilning 12 iyun

VI. O'zbekiston Respublikasida chop darsliklar va o'quv qo'llanmalar

26. Avezboyev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash: Darslik - T.:Yangi asr avlodi nashriyoti, 2004.
27. Avezboyev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash: Darslik - T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
28. Avezboyev S., Volkov S.N. Yer tuzishning ilmiy asoslari. Darslik - T.:Yangi asr avlodi nashriyoti, 2002.
29. Avezboyev S., Volkov S.N. Yer tuzish iqtisodi. Darslik - T.:Yangi asr avlodi

nashriyoti, 2002.

30. Bobojonov A.R., Rahmonov Q.R., G'ofirov A.J. Yer kadastri. – (darslik). T.: TIMI, 2008. – 210 b.
31. Rafiqov A.A. va boshq. Tabiatdan foydalanish iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. T.:TDIU, 2004
32. Sultanov A.S. va boshq. Suv xo'jaligi iqtisodi. – T.: TIMI, 2007.

Rossiya Federatsiyasida chop etilgan darsliklar

33. Gendelman M.A. Zemleustroitelnoe proyektirovanie. M.: Agropromizdat, 1987.
34. Volkov S.N. Zemleustroitelnoe proyektirovanie. Moskva. Kolos, 1997.
35. Volkov S.N. Zemleustroystvo. Zemleustroitelnoe proyektirovanie. Tom 2: darslik. M.: Kolos, 2001. -648 b.
36. Volkov S.N. Zemleustroystvo. Ekonomika - matematicheskiye metodi i modeli. Tom 4: darslik. M.: Kolos, 2001. -696 b.
37. Kasl E., Beker M., Nelson A., Effektivnoe fermerskoe xozyaystvovanie. -M.: Agropromizdat, 1991. -496 s.
38. Frolov V.I., Ekonomicheskiy mexanizm mejxozyaystvennix svyazey v APK. - M.: Agropromizdat, 1989. -144 s.

VII. Ilmiy maqolalar

39. Gulboyev A. Yerdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazorati. Yergeodezkadastr Davlat qo'mitasi axborotnomasi. 2009 №1. 5-13 bet.
40. Qo'ziyev R.Q. O'zbekiston Respublikasining tuproq resurslari va ulardan samarali foydalanish. Yergeodezkadastr Davlat qo'mitasi axborotnomasi. 2009 №1. 32-37 bet.
41. Shamsiyev A. G'o'zani navbatlab qator almashtirib sug'orish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №9. 12-13 bet.
42. Shaymardonov Sh. va boshqalar. Suv samaradorligi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №12. 33 bet.
43. D-r Jon Bakster. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. 2005 №7. 18-20 bet.

VIII. Pedagogik va axborot texnologiyalar bo'yicha o'quv adabiyotlar, uslubiy qo'rsatmalar

44. Abduraxmonov Q.X. va boshqalar. "Iqtisodiy ta'limning o'qitish texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma –T.: TDIU, 2006.
45. Golish L.V. «Vvedeniye v texnologizatsiyu obucheniya v ekonomicheskom vuze». Texnologiya obucheniya v ekonomicheskom obrozovanii. Kniga 2. Met. posob. –T.: TGEU, 2005.

IX. Statistik ma'lumotlar to'plami

46. Selskoe xozyaystvo Uzbekistana 2004: Statisticheskiy sbornik. – T.: Goskomitet Ruz po statistike, 2005.
47. 2008 yildagi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojining asosiy ko'rsatkichlari – T.: 2009
- 48.. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo'mitasi milliy hisobotlari. 2005-2011 y.y.

X. Internet saytlari

49. www.Ziyo.net
50. <http://www.Tsure.ru>
51. <http://www.yerish.net>.
52. <http://www.Guz.ru>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«YER TUZISH VA YER MUNOSABATLARI» KAFEDRASI

YER TUZISHNI LOYIHALASH fanidan

M U S T A Q I L I S H

***Mavzu: Yer islohati va yer tuzishni loyihalashning
yangi vazifalari***

**Bajardi “Yer tuzish va yer kadastri”
yo’nalishi 3-kurs 5-guruh talabasi
Raxmatov Murod**

**Qabul qildi: katta o’qituvchi G’ofirov
A.J.**

Toshkent – 20__

Mustaqil ishni rasmiylashtirish bo'yicha

Namuna

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

«YER TUZISH VA YER MUNOSABATLARI» KAFEDRASI

YER TUZISHNI LOYIHALASH fanidan

M U S T A Q I L I S H

***Mavzu:* Xo'jalikda almashlab ekish tizimini tashkil
etishni iqtisodiy va ekologik asoslash**

**Bajardi “Yer tuzish va yer kadastri”
yo'nalishi 4-kurs 4-guruh talabasi
Jo'rayev Shuxrat**

**Qabul qildi: katta o'qituvchi G'ofirov
A.J.**

Toshkent – 20_

Mavzu: Xo'jalikda almashlab ekish tizimini tashkil etishni iqtisodiy va ekologik asoslash

Reja:

1. Almashlab ekish tizimini iqtisodiy asoslash

2. Almashlab ekish tizimini ekologik asoslash

Almashlab ekishni tashkil etishda har xil yo'nalishlarda ta'sir etadigan ko'plab omillarni hisobga olish kerak. Masalan, dehqonchilikning ixtisoslashuviga ekinlarning biologik xususiyatlari, almashlab ekishni ular bilan tolatish imkoniyati, ayrim ekinlar massivlarini hududiy ajratish zarurati xalaqit beradi. Ekinlarni jamlash, bir xil bo'lmagan tuproq qatlamlarida, mayda qishloqlar mavjudligida, ko'p tarmoqli xo'jaliklarda qiyinlashsadi. Shudgorlash, ekish, yigish – transport majmualari va guruhleri asosida agregatlarning jamlanib guruh bo'lib ishlashini joriy etish, almashlab ekish massivlarini va dalalarini yiriklashtirishga imkon tug'dirsa, ijara, jamja va oila pudratlarini qo'llash esa ularni kichraytirishga olib keladi. Shuning uchun almashlab ekishni joriy etish har tomonlama asoslangan bo'lisi kerar.

Almashlab ekishni loyihalash ekinlar tarkibini, ularning xo'jalik hududida va xo'jalik markazlariga nisbatan joylashishini, dehqonchilikda mehnatni va hududni tashkil etishni belgilaydi. Bularning barchasi dehqonchilik yalpi mahsulotlari hajmiga va joriy xarajatlarga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi. Bunday vaziyatda mezon sifatida sof daromadning umumiy o'sishining maksimal qiymatidan foydalanish yaxshi natija beradi:


$$\Delta C\mathcal{D} = \sum \Delta \mathcal{M}_i - \sum \Delta X_j + \sum \Delta \mathcal{E}_j \rightarrow \max$$

bunda:

$\Delta \mathcal{M}_i$ - almashlab ekishni tashkil etishning har xil echimlarida o'zgaradigan i omili bo'yicha dehqonchilik yalpi mahsuloti qiymatining o'sishi;

ΔX_j - j turdagi xarajatlar yoki zararlarning o'sishi;

$\Delta \mathcal{E}_j$ - j turdagi xarajatlarning tejalishi.



Yerlarning hududiy xususiyatlari qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish bo'yicha xarajatlarga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir etadi. Demak, almashlab ekishlarni iqtisodiy asoslashda bu ko'rsatkichni ham hisoblash kerak.

Almashlab ekishni loyihalashda tuproq unumdorligini oshirish uchun eng qulay sharoit yaratish kerak. Bu turgún iqtisodiy o'sishni va tuproq unumdorligini oshirib qayta tiklashni ta'minlaydi. Yerning unumdorlik xususiyatlaridan foydalanish darajasini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Gumus balansi va tuproq unumdorligini tiklash uchun xarajatlar

Xo'jalik yerlari sifatini, almashlab ekish massivlari va qishloq xo'jalik ekinlarining unumdorligini, har xil yerlarda joylashishini hisobga olgan holda, dehqonchilik mahsulotlarining yalpi qiymati

Gumus balansining asosiy bandlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Gumusning minerallasishi (qishloq xo'jalik ekinlari hosili bilan azotning jlib ketilishi);

tuproq eroziyasi jarayonida gumusning erigan qor va kuchli yomgir suvlari bilan va deflyasiya jarayonida chiqib ketadi;

O'simlik qoldiqlarining chirishi va dukkakli ekinlar tomonidan azot yigilishi hisobiga tuproqqa organik moddalarning qo'shilishi;

organik o'g'itlar berish natijasida gumus yigilishi.

Gumusning eroziya jarayonida chiqib ketishining umumlashtirilgan hisob – kitoblarini olib borishda quyidagi ifodadan foydalanish mumkin:

$$B_{\text{э}} = 0,0132 \cdot p \cdot S_i \cdot K_{\text{э}}$$

Bunda:

p- tuproqdagi gumus miqdori, birning bo'laklari hisobida;

S-yer sathidan oqadigan suv hajmi, 1 ga m³;

i – suv yigiladigan maydon nishabligi, grad.;

K_э- ekinlarning eroziya xavfliligi koeffitsienti

0,0132 – o'tkazish koeffitsienti

Masalan, shudgor uchun K_э=1, p=0,04, S=500 m³ 1 ga, i=3⁰ bo'lganda, B_э=0,79 t 1 ga bo'ladi. K_э=0,3 yoki 0,08 bo'lganda, gumus mos tarzda 1 ga 0,79 va 0,06 t kamayadi.

Qishloq xo'jalik ekinlarning gumusni olib chiqib ketishi

E k i n l a r	gumusni olib chiqilishi (-), yigilishi (+), 1 s mahsulotda, t	Eroziya xavfi koeffitsienti
Kuzgi bug'doy	0,024	0,30
Bahorgi bug'doy	-0,029	0,50
arpa	-0,023	0,50
No'xat	-0,002	0,35
Don uchun makkajo'xori	-0,015	0,85
Qand lavlagisi	-0,0029	0,85
kartoshka	-0,0027	0,75
kungaboqar	-0,006	0,75
Zigir tola	-0,067	0,50
Silos uchun makkajo'xori	-0,0059	0,60
Makkajo'xorisiz, silosboplar	-0,0029	0,45
sabzavotlar (pomidorlar)	-0,0035	0,85
Pichan uchun bir yillik o't	-0,0045	0,35
Pichan uchun ko'p yillik o't	+0,025	0,08(f-shning 1 y.da)
Shudgor (1 ga t)	-3,0	1,0
Yashil ozuqa uchun bir yillik o'tlar	-0,0045	0,35
Yashil ozuqa uchun ko'p yillik o'tlar	+0,0062	0,01(f-shning 2 y.da)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi". T. O'zbekiston, 1997
2. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami (I va II qismlar), T.: Sharq, 1998
3. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Davlat yer kadastrini to'g'risida». T:1998
4. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami (I va II qismlar), T. Sharq, 1998
5. Avezbayev S., Volkov S.N. «Yer tuzishni loyihalash» T.: Yangi asr avlodi,2004
6. Avezbayev S., Volkov S.N. «Yer tuzish iqtisodi». T.: Yangi asr avlodi, 2002
7. Yer munosabatlarini tartibga solishga doir me'yoriy xujjatlar to'plami, 1-2 tom, T.:1997
8. www.Ziyonet.uz

MUNDARIJA

	KIRISH	3
1	MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI	6
2	“YER TUZISHNI LOYIALASH” FANI BO’YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI	9
3	MUSTAQIL ISHNI BAJARISH BO’YICHA TAVSIYALAR	14
4	ISHNING REJASINI TUZISH VA BAJARILADIGAN ISHLARNI NAZORAT QILISH	19
5	FOYDALANILADIGAN MANBALAR	30
6	ILOVA	36

G'OFIROV AZIM JUMAYEVICH

YER TUZISHNI LOYIHALASH

fanidan mustaqil ishlarini bajarish bo'yicha
(metodik ko'rsatma)

Muharrir: M.NURTOYEVA

Musahhih: D.ALMATOVA

Bosishga ruxsat etildi _____ Qog'oz o'lchami
60x1/16 Hajmi 2,7 b.t. 25 nussha, Buyutma
№ _____ TIMI bosmaxonasida chop etildi
Toshkent 100000 Qori-Niyoziy ko'chasi 39 uy

